

**GEOGRAFIYADA YUZAGA KELAYOTGAN DOLZARB
MUAMMOLAR**

O'taniyozova Muxlisa Baxtiyorovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston

Milliy Universiteti 3-kurs talabasi

Telifon: +998(99)4190503

E-mail: otaniyozovzohidjon@gmail.com

Toshturdiyev Nurbek Nurali o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Gidrometeorologiya fakulteti 2-kurs talabasi

Telifon: +998 (88) 910 42 46

E-mail: nurbektoshturdiyev86@gmail.com

Anotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada tabiiy geografiya yo'nalishi bo'yicha yuzaga kelayotgan, shakllanib bo'lgan yoki shakllanayotgan muommolar va unga sabab bo'lgan omillar ko'rib chiqilgan. Xususan inson- tabiat o'rtasidagi aloqadorlik va uning oqibatlarini, cho'llanish hama sho'rlanish muammolar, iqlimning o'zgarishi va uning tabiiy geografik muammolari, Global iqlim o'zgarish hodisasi to'g'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar. Atrof-muhit, iqlim, jonli va jonsiz tabiat, zaharli moddalar, cho'llashish, degridatsiya, miloratsiya, global tashvish, iqlim o'zgarishi, salbiy oqibatlar, geografik muhit.

Hozirgi kunda yuzaga kelayotgan muommolar insoniyatning tobora rivojlanib borishi natijasida yuzaga kelmoqda. Bunga asosiy sabab qilib inson o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida tabiatdan ayovsiz foydalanishi tabiatning muvozanatini buzishiga sababchi bo'lib qoldi. Bizga ma'lumki tabiatga hech qanday insoniyat ta'sir qilmasa u o'z hududini, shaklini, kontur va mutanosibligini deyarli o'zgarmasligini ta'minlaydigan tarzda rivojlanib boraveradi.

Odam o'z atrof- muhitini ehtiyojiga qarab o'zgartira oladigan yagona tirik organizm. Tabiatni bo'sundirish, barcha jonli va jonsiz tabiatga ta'sir o'tkazish va o'zlashtirish insoniyat hayoti boshlangandan beri insoniyatning tan olingan maqsadi edi.

Hozirgi tabiiy muhitimizni o'rganish uchun oldimizda uchta yaxshi sabab mavjud.

1. Bizning ilg'or texnologiyalarimizni ko'payib borayotgan resurslardan foydalanishga yordam beradi.
2. Aholi sonining ko'payishi bizning yashash maydonimizga har yili katta bosim o'tkazmoqda

3. Insoniyatning doimiy mavjudligi, tabiatga salbiy yoki ijobiy ta'sirini oshiradi, muvozanatini izdan chiqaradi.

Iqlim kabi tabiiy sabablarning asta- sekin o'zgarishi bilan birga, yerning yaxshiy hamda hisobsiz o'zlashtirilishi oqibatida nafaqat atrof- muhitga balki hayvonot va o'simlik dunyosi cheksiz ravishda yo'q qilindi. Ko'plab zavodlardan chiqadigan chiqindilar daryolarga yoki shunga o'xshash suv havzalariga quyilishi oqibatida suv zaharlanmoqda. Daryolardagi baliq va sudralib yuruvchilar yashay olmay qoladi. Bunga asosiy sabab suvda kislarod yetishmasligi.

Bunga misol qilib atrof-muhitning o'zgarishi Shimoliy Amerikada joylashgan Ontario ko'lida yashovchi lososlarning yo'qolib ketishiga, bizonlarning esa G'arbiy tekisliklarda yo'qolib ketishiga, dunyoning turli hududlarida o'rmonlarning kesilib ketishiga sabab bo'lmoqda.

Inson tabiatdan foydalanib o'ziga zarur bo'lgan oziq ovqat mahsulotlarini olish uchun yerdan ayovsiz foydalanib kelmoqda. Ekinlardan olinadigan hosilni ko'paytirish maqsadida yerga turli xil pestitsidlar- ekinlarga tahdid soluvchi hasharotlarni nazorat qilish uchun ishlatiladigan zaharli kimyoviy moddalarni yerga o'g'it sifatida solmoqda. Ushbu moddalar tabiiyki yerga ham ekinlarga ham so'rilishi natijasida inson organizmiga hamda foydalanishga yaroqli bo'lgan yer uchun ham o'zining nojo'ya tasirini ko'rsatib kelmoqda.

Qazib olinayotgan yoqilg'ilarning yonishi va insonning boshqa faoliyati ta'sirida atmosferaga CO₂ va boshqa gazlarning chiqishi 2050- yilga kelib yerning quyi atmosferadagi haroratini bir necha darajaga ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. Bu oziq- ovqat ishlab chiqarishni to'xtat qolishiga va qirg'oqbo'yi past shaharlarning va ekin maydonlarini suv bosishiga olib kelinishi mumkin.

Haroratning yurori bo'lib ketishi natijasida esa yer yuzida cho'llashish hodisasi yuzaga kelishi mumkin. Cho'llashish - barcha ekalogik tizimlarning buzilishi hamda organik hayotning barcha shakllarini yomonlashuviga va bularning natijasida tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlarning pasayib ketishiga sabab bo'ladi. (Birlashkan Millatlar Tashkilotining Cho'llanishga qarshi kurashish konventsiyasi) Iqlimi qurg'oqchil bo'lgan hamda cho'llashish jarayoni vujudga kelgan hududlarda dunyo aholisining taxsmiman uch milliard kishi yashaydi.

Cho'llashish hodisasi tabiiyki yerning deqritatsiyasiga yani yomonlashuviga olib keladi. Bu shuni anglatadiki, cho'llanish bizning salomatligimiz va omon qolishimiz uchun zarur bo'lgan hamma narsani yo'q qilishi mumkin. Cho'llashishni to'xtatish bo'yicha chora- tadbirlarni ko'rish, ayniqsa yerdan foydalanishning beqarorligi, birinchi navbatda, bu muammoga olib kelganligini anglatadi.

Yerdan noto'g'ri foydalanayotgan davlatlardan misol qilib Mongoliyani olishimiz mumkin. U yerda muntazam echki boqilishi natijasida minglab gektar maydondagi yerlarning axvoli yononlashib boormoqda, osimlik qoplarni esa ildizi

bilan yo'qolib ketishiga sabab bo'lmoqda.. Cho'llashish muommosining yechimlari tabiatni muhofaza qilish bo'yicha qishloq xo'jaligi va chorvachilik amaliyotini o'z ichiga olgan barqaror rivojlanishga erishish orqali amalga oshiriladi. Bundan tashqari global ifloslanishni kamaytirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga erishish orqali olib boriladi

Cho'llashish jarayonini kamaytirish uchun o'rmonlarga katta e'tibor qaratish zarur. Sababi o'rmonlarni yo'q bolib ketishi oqibatida daraxtlar bilan birgalikda u yerdagi o'simlik qoplami ham yo'qoladi, tuproq holati yillar o'tgandan keyin yomonlashadi, shamol eroziyasi vujudga keladi.

Cho'llashish hodisasi natijasida tuproq tarkibida sho'rlashish jarayoni ham kuzatilishi mumkin. Tuproqning sho'rlanishi tabiiya sabablarga ko'ra (sho'r botqoqlar va sho'r botqoqlarning paydo bo'lishi), shuningdek, qishloq xo'jaligi yerlarining noto'g'ri sug'orilishi natijasida yuzaga keladi. Sho'rlangan tuproqlardan oziq- ovqat mahsulotlarini olish qiyin. Shu sababli sho'rlanishga moyil bo'lgan hududlarning melorativ holatini yaxshilash kerak. Mening fikrimcha sho'rlanishga moyil bo'lgan xududlarda meliorative holatini belgilaydigan asosiy ko'rsatkich o'simliklar vegetatsiyasi davrida yer osti minerallasgan sizot suvlari sathining turishi hisoblanadi. Agar yer osti suvlarining joylanish chuqurligi , litologik holatidan kelib chiqqan holda ushlab turilsa va sug'orish rejimi to'g'ri qo'llanilsa, u holda tuproq tarkibidagi yuzlarning o'simliklar uchun salbiy ta'siri kuzatilmaydi.

Ushbu jarayonlardan tashqari dunyo bo'yicha global iqlim o'zgarishi yuzaga kelmoqda. Iqlim o'zgarishi nima? Iqlim o'zgarishi deganda yerning atrof- muhit sharoitlarining o'zgarishi tushiniladi. Bu esa ko'plab tashqi va ichki omillar tufayli sodir bo'ladi. Bu hodisa songgi o'n yillik Ichida global tashvishga aylanib bordi.

Bundan tashqari , bu iqlim o'zgarishilari ekotizim va ekalogiyaga turli xil ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Ushbu o'zgarishlar tufayli bir qator o'simliklar va hayvonlar turlarining kamayib, ko'p hollarda esa yo'qolib borishiga sabab bo'lmoqda.

Insoniyat o'z ehtiyofti tufayli nafaqat atrof- muhitga balki o'ziga ham Zarar keltiradigan ko'p ishlar qilingan. Ko'pgina hayvon va o'simlik va hayvonlar turlari inson faoliyati tufayli yo'q bo'lib ketgan. Tabiatga katta miqdorda chiqindi chiqargan , o'rmonlarni kesgan ,hamda bundan boshqa turdagi ifloslanishlarni olib kelgan. Bularning barchasi esa iqlim o'zgarish hodisasiga olib keldi.

Ushbu iqlim o'zgarish atrof muhitga katta salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

- Okean sathining yildan yilga ko'tarilib borishi
- Muzlilarning erib borishi
- Havoda CO 2 va boshqa zararli moddalarning ortib borishi
- Chuchuk suv tarkibida inson salomatligi uchun xavfli bo'lgan moddalarni ko'payishi va hk.

Yuqoridagi ko'rsatilgan jarayonlar tasiri yanada ortib borsa, agarda biz ularni yaxshilash uchun hech qanday chora tadbir qo'llamasak kelajakda odamlar yo'q bo'lib ketishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak insoniyatning yashashi hamda u uchun yaratiladigan barcha narsaning ortida atrof- muhit turibdi. Ana shu yashash tarzining yomonlashuviga yoxud yaxshilanishiga sababchi ham insoniyatning o'zi. Uning geografik muhitga bo'lgan ijobiy yoki salbiy tasiri kelajagini qanday axvolga tushishini belgilab beradi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. T.R.Lookingbill, C.L.Tague. in Encyclopedia of Ecology, 2008
2. Stephen R. Shifley, Joshua J. in Models for Planning Wildlife Conservation in Large Landscape, 2009.
3. Абдулкасимов А. Антропогенная трансформация ландшафтов Средней Азии и вопросы её прогнозирования//География и природные ресурсы, №3.1980.- С.5-33.
4. Алпатов А.М. Развитие, преобразование и охрана природной среды. -Л.: Наука, 1983.-С.17.
5. <https://www.sciencedirect.com>
6. <https://link.springer.com>